



## **MUSIQA TA'LIM FANINING SAMARALI TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR**

**Muallif:** Karamatillayeva Madina Muhammadi qizi<sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani, 35-umumiy o'rta ta'lif matabining Musiqa madaniyati fani o'qituvchisi<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.1450608>

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada musiqa darslari samarali pedagogik texnologiyalar, musiqiy ta'lif fanining tashkil etilishi pedagogik o'quv jarayonini eng qulay va samarali tashkil etishda muhim o'rni haqida fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Inson, shaxs, musiqa ta'lif, dars, san'at, pedagogik texnologiya.

Xalqimiz asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba to'pladi, uni takomillashtirdi va ijtimoiy hayotida turli vositalar orqali kelajak avlodga meros qoldirdi. Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniytiga ega. O'zbekistonda uzlusiz ta'lif tizimi asosida shaxsni rivojlantirishda juda katta e'tibor berilib kelinmoqda. Bu o'rinda musiqa ta'lifining e'tibor tubdan takomollashtirilib, uni yanada rivojlantirishda masalasiga e'tibor o'zgacha tus oldi. Kelajak avlodni barkamol inson etib tarbiyalashga alohida urg'u berilishi juda ham ahamiyatlidir.

Ma'lumki, har bir musiqa dars mavzusini o'rganishda o'ziga xos texnologiya, usul va vositalarni tanlashga to'g'ri keladi. Ta'limga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha amaliy tajribalarini o'rganish, kuzatish va tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, ta'lifning deyarli barcha mashg'ulotlarini interfaol metodlar asosida tashkil etish keng tus olmoqda. Har bir darsda pedagogik texnologiyaning u yoki bu turini qo'llashdan iboratdir. Ilg'or pedagogik texnologiya qachon samarali bo'ladi, u o'quvchilar uchun qiziqarli, ularni faollashtiruvchi, mustaqil ijodiy fikrlashga qaratilgan.

Buning uchun o'qituvchi pedagogik texnologiyani tanlashda dars mavzusi, tuzilishi, o'quvchilarni qiziqishi, musiqa darslarida nazariy, amaliy, ijrochilik imkoniyatlar mavjud.

O'qituvchining pedagogik mahorati- o'quv jarayonini eng qulay va samarali tashkil etish, talaba- o'quvchilarda dunyoqarash qobiliyatini shakllantirish, jamiyat faoliyatiga moyillik uyg'otish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Pedagog o'z faoliyati, maqsadini va unga erishish yo'llarini aniq tasavvur qilishi hamda bu maqsadga erishish o'quvchilar uchun ahamiyatlidir. Ekanligini ularga anglata olishi zarur. Pedagogik ta'lif- tarbiya jarayonida o'quvchi faoliyatini boshqarish hamda pedagog maqsadi doimo o'quvchi kelajagi tomon yo'naltirilgan bo'ladi. Pedagog doim o'sib- o'zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

Pedagogik texnologiyalarni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad va vazifalar quyidagilarni ko'zda tutadi; tashkil etish, hamkorlikda o'qituvchi va o'quvchi o'zaro munosabatlari ishlash, guruh bo'lib yakka holda ishlash, har bir o'quvchining, faolligini ta'minlash, takomillashtirish, tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, nazorat qilish, baholash va hokazolar.

Hozirgi kunda respublikamizning barcha ta'limga tizimida ayniqsa oliy pedagogic ta'limga tizimida pedagog-kadrlar tayyorlashning sifat va samaradorligini yuqori ko'tarishga katta ahamiyat berilmogda va bu borada turli pedagogik izlanishlar olib borilmogda. Bu izlanishlarning asosan o'qitish maqsadi va uning yuqori natijalariga erishishida ta'limga ilg'or pedagogik texnologiyalarni kiritish orqali ta'limga samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, ta'limga texnologiyalarni eng muhim vazifalardan bo'lib turibdi. Pedagogik mahorati yuqori, yuqori, tajribali o'qituvchi musiqa darslarida o'qituvchi avvalo o'zining so'z mahorati, cholg'u asbobida chalish, qo'shiq kuylash, turli ko'rgazmali, texnik vositalardan foydalanishi darsni qiziqarli va mazmunli kechishida katta rol o'ynaydi.

Musiqa darslarida aksariyati o'quvchilar o'qituvchiga taqlid qilib kuylashadi, unga ergashadi, andoza oladi, o'qituvchining shaxsiy namunasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki darsda amaliy ijrochilik o'rinni tutadi. Ilmiy pedagogik tayyorgarlik ta'limga samaradorligini ta'minlaydigan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda faol ishtirok etuvchi o'qituvchilar muntazam ravishda o'zlarining pedagogik mahoratlarini orttirib boradilar hamda ta'limga tarbiya samaradorligini ta'minlashishi kelajak uchun mas'ul barkamol avlodni kamolga yetkazishda boshqalarga o'rnak bo'lib xizmat qiladilar.

Ta'limga tashkil etishning noan'anaviy shakllarining xilma-xilligi turli xil faoliyat turlari uchun keng sharoitlarni yaratadi, bu nafaqat o'quvchining aqliy jarayonlarining butun majmuasini o'z ichiga olishga imkon beradi, asosiy ta'limga doirasini kengaytirishni, balki kasbiy bilim va ko'nikmalarni olishga imkon beradi. Ayniqsa musiqiy ta'limga zamona talablari darajasiga ko'tarish, ta'limga tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Musiqiy-nazariy fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratga oid bilim, tajriba va interfaol metodlar o'quvchi-talabalarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lislari taminlaydi.

XXI asrda yangi texnologiyalar paydo bo'lishi munosabati bilan o'qitish uslubiyotiga yondashuv o'zgardi, o'qishni rivojlantirish masalalari eng muhim biri bo'ldi. O'quvchilarni ommaviy estetik tarbiyalash o'quvdasturlar, o'qitish usullariga boshqacha, yangicha yondashuvni talab qiladi. Musiqiy nazariy fanlar o'qituvchilarning vazifasi bu jarayonni o'quvchilar uchun ijodiy va qiziqarli qilishdir.

Musiqiy ta'limga yangicha yondashuvlar, shuningdek, o'quvchilar musiqiy, qobiliyatlarini rivojlantirishda mutlaqo boshqacha, eng samarali pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi.

Musiqa inson tafakkurining o'ziga xos turi bo'lib, asosiy vazifasi - inson bilan aloqa qilish funktsiyasini bajaradi. Bunday darslarda ma'naviy, amaliy, ijodiy, individual dunyoqarash ustunlik qiladi. Musiqi nazariyasi, solfedjio va garmoniya fanlarda innovatsion texnologiyalarni qo'llash mumkin. Yangi texnologiyalardan foydalanish musiqiy nazariy darslarini boyitadi va yangilaydi. Pedagogik fan va amaliyotning hozirgi

rivojlanish bosqichida shaxsni shakllantirish muammolari dolzarbga ega. Musiqiy-nazariy fanlar bo'yicha olingan bilimlarni tushunish, tajriba qilish va qo'llash ko'plab amaliy mashg'ulotlarda amalga oshiriladi. Pedagogik texnologiyalarning xilma-xilligi ularni birgalikda ishlatishga, mavzular va bo'limgar bo'yicha o'qituvchiga eng munosibini tanlashga imkon beradi.

Musiqqa o'qituvchisi o'quv va tarbiya ishlarini olib boradi. U faqatgina keng bilimga ega bo'lib qolmay, o'zining fanini chuqur va puxta bilishi, o'quvchilarni musiqqa tarbiyalashda dunyoqarashi, fikrashi, tushunchasi alohida ahamiyatga ega. Musiqqa o'qituvchisi yaxshi sozanda yaxshi san'atkor bo'lishi, Musiqqa cholg'usida yaxshi chalish, ijro eta olish, yaxshi ovozga ega bo'lishi, notaga qarab yaxshi ijro qilishi, bolalarning qobiliyatini ajrata bilishi lozimdir.

Musiqqa o'qituvchisi cholg'ularni yaxshi ijro etishi bilan cheklanib qolmay, dirijyorlik jesti va musiqqa nazariyasini mukammal bilishi zarur. O'qituvchining shaxsiy namunasi va bilim darajasi musiqqa fanining taqqadirini hal qiladi. Bulardan tashqari, o'qituvchi darslarni kuzatib borishi ham lozimdir. Kuzatishlar orqali o'qituvchi pedagogik mahoratini egallab boradi. Eng asosiysi o'qituvchi asarni ijro etibgina qolmay, uning mazmuni bilan o'quvchilarni tanishtirishga lozim, buning uchun o'qituvchining nutqi ravon, qisqa hamda tushunarli bo'lishi kerak.

Musiqqa madaniyati darsida o'qituvchining mahorati har tomonlama yuksak darajada bo'lishi lozimdir. Uning asar haqidagi kirish so'zi va dars mavzularini tushuntirib berishi, o'quvchilarni, ajoyib va sehrli san'at- musiqqa olamiga kirib keladi. Qiziqarli suhbatlar bilan bolalar diqqatini musiqqa mavzulariga yo'naltirishi mumkin. O'qituvchining musiqqa asari haqida, hikoyasi qisqa bo'lishi, o'quvchilarni badiiy idrok etishga erishtirishi lozimdir.

Dars davomida o'quvchilar bilan muloqot usulini qo'llasa, musiqqa haqida to'g'ri mulohazalar yuritishga, aniq xulosalar chiqarishga yordam beradi. Suhbat jarayonida ko'proq o'quvchilar baxsga o'tishi har bir bu faoliyatga o'qituvchi rejissor singari ularni boshqarib, to'g'ri xulosalarga erishishi lozim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Akbarov I.A. Musiqqa lug'ati. - T.: O'qituvchi, 1997

Raximov Q. Musiqaning elementar nazariyasi bo'yicha mashq va vazifalar to'plami. Toshkent, "O'zbekiston", 2006.

Raximov Q. Musiqaning elementar nazariyasi. (Ma'lumotnomma), Toshkent "Musiqa", 2007.